

**Bizning eng ulug' maqsadimiz,  
eng ulug' g'oyamiz shuki,  
O'zbekistonning bitta yo'li bor:  
Mustaqillikni mustahkamlab,  
mamlakatimizni har tomonlama  
yuksaltirib, yorug' va erkin  
hayot sari olg'a yurish**

**Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch"**

**Sana: 18.03.2013**

**Sinf: 9-"v"**

**Fan:** Konstitutsiyaviy huquq asoslari.

**Mavzu:** O'zbekiston Respublikasining sud tizimi.

**Dars maqsadi:**

O'quvchilarga sudning inson huquqlari himoyasidagi asosiy bo'g'in ekanligini odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy talablar, sudyalarning asosiy huquq va majburiyatlari, sud faoliyati konstitutsiyaviy tamoyillari haqida ma'lumot berish.

O'quvchilarni konstitutsiya va qonunlarni hurmat qiladigan huquqiy jihatdan madaniyatli, mustaqil fikrli insonlar sifatida tarbiyalash.

Ularning huquqiy BKMLarini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

**Dars tipi:** Yangi bilim beruvchi.

**Dars metodi:** Noan'anaviy.

**Dars usuli:** Klaster, savol-javob, "Aqliy hujum". "Bingo"

**Dars jihozi:**

1. Mavzuga oid slayd.

2. Referat va bukletlar.

3. Normativ hujjatlar:

A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (106, 116-moddalar).

B. O'zbekiston Respublikasi Sudlar to'g'risidagi qonun.

4. OAV materiallari. "Xalqso'zi" 13-noyabr. 2010-yil.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", "Yoshlarimiz-xalqimizning ishonchi va tayanchi"

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi.

**Dars shiori:** "Ishga yarab qolsa ilming bir muddat,  
Yana oshirmoqqa aylagil shiddat"

(Mirzo Ulug'bek)

**Kutilayotgan natija:**

1. Sudning inson huquqlari himoyasidagi asosiy bo'g'in ekanligini odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy talablar, sudyalarning asosiy huquq va majburiyatlari, sud faoliyati konstitutsiyaviy tamoyillari haqida ma'lumotga ega bo'lish;

2. Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilishga odatlanish;

3. O'z hatti-harakatlarini qonun asosida boshqarishga odatlanish;

**Tayanch tushunchalar:**

1. Sud organlari — odil sudlovni amalga oshiruvchi mustaqil organ;

2. Sud tizimi;
3. Aybsizlik prezumptsiyasi;
4. Obyektivlik;
5. Qonuniylik;
6. Har tomonlamalik va to'lalilik;
7. Asoslilik va adolat;
8. Sud hokimiyati organlari faoliyatining asosiy prinsiplari.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga jalb qilish va sinfda ishchi muhitini yaratish.

#### **II. O'tilgan dars mavzusi yuzasidan takrorlash.**

Bu vazifa savol-javob yordamida bajariladi.

1. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi qanday prinsipga asoslanadi?
2. Davlat hokimiyati nima uchun hokimiyatlarning bo'linish prinsipiga asoslanadi?
3. O'zbekiston Respublikasida qanday ijroiya organlarini bilasiz?
4. Vazirlar Mahkamasi tarkibi qanday shakllantiriladi?
5. Respublika hukumatining vakolatlarini sanab bering.
6. Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis bilan o'zaro aloqalari qanday amalga oshiriladi?
7. Ijroiya hokimiyati organlarining vazifasini ayting?
8. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida" gi qonun qachon qabul qilingan?
9. Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida konstitutsiyaning 98-moddasiga qanday o'zgartirish kiritish taklif etilgan? Konstitutsiyaning yana qaysi moddalariga o'zgartirish kiritish taklif etilgan?
10. Ishonchsizlik votumi nima?
11. Modernizatsiya va konsepsiya so'zlariga izoh bering.

O'quvchilar 9-10-savollarga javob topishda "Xalq so'zi" gazetasining 12-noyabr va 2011-yil 26-mart sonlaridan foydalanishlari mumkin (bu haqda o'qituvchining tavsiyasi berilgan).

O'quvchilar javobi tinglanib, xulosa qilinadi va baholanadi.

#### **III. Yangi mavzu bayoni**

##### **a) Yangi mavzu rejasi:**

1. Inson huquqlari himoyasidagi asosiy bo'g'in;
2. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi;
3. Aybsizlik prezumptsiyasi;
4. Odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy talablar;
5. Sudyalarning asosiy huquq va majburiyatlari;
6. Konstitutsiyaviy sud vakolatlari.

##### **b) Dars mavzusi ustida ishlash:**

O'qituvchi yangi mavzuni slayd yordamida, qo'shimcha adabiyotlardan, OAV materiallaridan foydalanib suhbat, savol-javob usuli yordamida bayon qiladi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilarning mavzu mazmunini qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash va mustahkamlash maqsadida "Bingo" usulidan foydalanadi.

**Slaydlarda savollar namoyish etiladi.**

#### IV. Yangi mavzu mustahkamlash

##### Savollar:

- 1.Sud qanday organ?
- 2.Sud tizimi tushunchasiga ta'rif bering?
- 3.Sud idoralari qanday asoslarda shakllantiriladi?
- 4.Odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy talablar nima?
5. XABEAS korpusi nima?
- 6.Sud-huquq tizimi islohotlaridan ko'zlangan maqsad nima?
- 7.Sudlarda ishlar qanday ko'riladi?
- 8.Sudlarda ishlar qaysi tilda olib boriladi?
- 9.''Sudlar to'g'risidagi''qonun yangi tahriri qachon qabul qilingan?
- 10.Sud hokimiyati faoliyatining tamoyillarini ayting.

##### Har bir o'quvchiga quyidagicha oldindan tayyorlab qo'yilgan varaqalar tarqatiladi

Odil sudlovni amalga oshiruvchi mustaqil organ	Obyektivlik, har tomonlamalik va to'lamalik, qonuniylik, asoslilik, adolat	Davlatning tegishincha o'z vakolatlari maqsadlari va vazifalariga ega bo'lgan sud organlari	Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi	Sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda
Saylash va tayinlash asosida	Sudni qatag'on quroli, jazo organidan odil sudlovni amalga oshiruvchi mustaqil organga aylantirish	2000-yil 14-dekabr	Qonuniylik, oshkoralik, teng huquqlilik, tomonlarning bahslashuvchanligi, aybsizlik prezumpsiyasi	Qamoqqa olish sanksiyasining sudlarga o'tkazilganligi

O'qituvchi slaydda ko'rsatilgan raqamga qarab savollarning javobini tartib raqamiga mos bo'lgan katakka qo'yib chiqish kerakligini aytadi.

O'quvchilarning javoblari tinglanadi, kamchiliklari to'ldiriladi, aniqliklar kiritiladi

O'quvchilar javoblarining sifatiga qarab baholanadi. Yakuniy xulosa yasaladi.

<b>1.Sud qanday organ?</b>
<b>2.Sud tizimi tushunchasiga ta'rif bering?</b>
<b>3.Sud idoralari qanday asoslarda shakllantiriladi?</b>
<b>4.Odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy talablar nima?</b>
<b>5. XABEAS korpusi nima?</b>
<b>6.Sud-huquq tizimi islohotlaridank'o'zlangan maqsad nima?</b>

<b>7.Sudlarda ishlar qanday ko'riladi?</b>
<b>8.Sudlarda ishlar qaysi tilda olib boriladi?</b>
<b>9."Sudlar to'g'risidagi" qonun yangi tahriri qachon qabul qilingan?</b>
<b>10.Sud hokimiyati faoliyatining tamoyillarini ayting.</b>

### Javoblar varaqasi

1. Odil sudlovni amalga oshiruvchi mustaqil organ	4. Obyektivlik, har tomonlamalik va to'ralik, qonuniylik, asoslilik, adolat	2. Davlatning tegishincha o'z vakolatlari maqsadlari va vazifalariga ega bo'lgan sud organlari	7. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi	8. Sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda
3. Saylash va tayinlash asosida	6. Sudni qatag'on quroli, jazo organidan odil sudlovni amalga oshiruvchi mustaqil organga aylantirish	9. 2000-yil 14-dekabr	10. Qonuniylik, oshkoralik, teng huquqlilik, tomonlarning bahslashuvchanligi, aybsizlik prezumpsiyasi	5. Qamoqqa olish sanksiyasining sudlarga o'tkazilganligi

#### **VI. Darsni yakunlash:**

Savol-javobda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi va mavzuga xulosa yasaladi.

#### **VII. Uyga vazifa:**

Mavzu savollariga javob topish. O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlari mavzusi bilan tanishish va O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi 118-121-moddalarini o'rganish.

#### **Xulosa o'rnida:**

**Hozirgi kunda xalqimizning bosh maqsadi- ozod va obod Vatan barpo etish, erkin va farovon turmush yaratishdir. Davlat tafakkurining tub-tubida ham ana shu milliy g'oya yotadi. Konstitutsiyamiz esa ana shu bosh g'oya – milliy g'oyani – ozodlik, yaratuvchanlik g'oyasini o'zida aks ettiradi. Konstitutsiyamizni bilish, o'rganish va o'rgatish, unga og'ishmay amal qilish fuqarolik burchimizdir.**